

МАКТАБДА ПСИХОЛОГИК ХИЗМАТНИ ТО‘Г‘РИ YO‘LGA QO‘YISHNING SAMARALI USULLARI

Xaitova Abadan Sultanovna

Toshkent shahar Uchtepa tumanidagi 109-maktab psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada maktabda psixologik xizmatni samarali tashkil etishning asosiy yo‘llari, uning mazmuni va ahamiyati yoritiladi. Psixologik xizmatni yo‘lga qo‘yishda diagnostika, profilaktika, rivojlantirish va maslahat berish faoliyatlarining o‘rni hamda ta‘lim jarayonida sog‘lom psixologik muhit yaratish masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: psixologik xizmat, maktab, o‘quvchi, diagnostika, profilaktika, psixolog, maslahat, trening, muhit, rivojlanish.

KIRISH

Maktabda psixologik xizmatni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish bugungi ta‘lim tizimining muhim talablaridan biridir. Chunki o‘quvchining nafaqat bilim olishi, balki uning ruhiy salomatligi, ijtimoiy moslashuvi va shaxs sifatida shakllanishi ham bevosita psixologik xizmat faoliyatiga bog‘liq. Shu sababli psixologik xizmat tizimli, aniq maqsadga yo‘naltirilgan va ilmiy asosda tashkil etilishi zarur.

Psixologik xizmatni samarali yo‘lga qo‘yishda eng avvalo uning asosiy yo‘nalishlarini to‘g‘ri belgilash muhimdir. Bu yo‘nalishlar — psixologik diagnostika, psixoprofilaktika, psixologik rivojlantirish, psixokorreksiya va psixologik maslahatdan iborat. Diagnostika orqali o‘quvchilarning individual xususiyatlari, qiziqishlari va muammolari aniqlanadi. Bu esa keyingi ishlarni to‘g‘ri rejalashtirishga yordam beradi.

Psixoprofilaktika yo‘nalishi orqali turli salbiy holatlarning oldini olishga e‘tibor qaratiladi. Masalan, o‘quvchilar o‘rtasida nizolar, zo‘ravonlik, stress yoki o‘qishga

qiziqmaslik kabi muammolarni erta aniqlash va ularni bartaraf etish muhim hisoblanadi. Profilaktik ishlar odatda suhbatlar, seminarlar va tarbiyaviy tadbirlar orqali amalga oshiriladi.

Psixologik xizmatning yana bir muhim jihati — o‘quvchilarni rivojlantirishga qaratilgan faoliyatdir. Treninglar, psixologik o‘yinlar va interaktiv mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarning muloqot ko‘nikmalari, o‘ziga ishonchi va mustaqil fikrlashi rivojlantiriladi. Ayniqsa, guruhiiy ishlash usullari ijtimoiy moslashuvni kuchaytiradi.

Psixologik maslahat esa o‘quvchilar, o‘qituvchilar va ota-onalar uchun muhim yordam vositasi hisoblanadi. Bu jarayonda shaxsiy muammolarni hal etish, to‘g‘ri qaror qabul qilish va murakkab vaziyatlardan chiqish yo‘llari ko‘rsatib beriladi. Maslahat berishda maxfiylik va ishonch muhitini yaratish muhim ahamiyatga ega.

Maktabda psixologik xizmatni samarali tashkil etishda hamkorlik muhim o‘rin tutadi. Psixolog o‘qituvchilar va ota-onalar bilan muntazam aloqada bo‘lishi, ularga metodik va psixologik yordam ko‘rsatishi zarur. Bu esa o‘quvchini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.

Quyidagilar psixologik xizmatning asosiy vazifalaridir:

- ta’lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini samarali va sifatli tashkil etish, shu jumladan, ish faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash orqali o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish ishlari samaradorligini oshirish;
- o‘quvchilarning qobiliyati, layoqati, qiziqishlari hamda kasb-hunarga moyilliklari asosida to‘g‘ri kasb-hunar tanlashlariga ko‘maklashish;
- turli yosh davrlarida o‘quvchilarning shaxsiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishini psixologik jihatdan kuzatib borish, ta’lim-tarbiyadagi psixologik nuqsonlarni aniqlash, ularning aqliy taraqqiyotida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan har qanday salbiy og‘ishlarning oldini olish;
- o‘quvchilar ta’lim muassasasining ijtimoiy muhitiga moslasha olmasligi holatlarini korreksiyalash, ularni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish bo‘yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish;

- pedagogik jamoalarda sogʻlom psixologik muhitni yaratish va qoʻllab-quvvatlash, jamoa aʼzolarining hissiy-emotsional holatlari, shaxslararo munosabatlar va ziddiyatli xatti-harakatlarni korreksiyalash, ularning psixologik madaniyatini yuksaltirish;
- isteʼdodli va iqtidorli oʻquvchilarni aniqlash, ularning individual-psixologik, fiziologik xususiyatlari va qiziqishlarini oʻrganish, qobiliyatlarini namoyon etishlari va rivojlantirishlari uchun shart-sharoitlar yaratish;
- axborot-psixologik xurujlarning xavfi, Internet jahon axborot tarmogʻining salbiy taʼsiri, yoshlar tarbiyasiga xavf solayotgan “ommaviy madaniyat”ning kirib kelishi holatlarining oldini olishga qaratilgan tadbirlarni oʻtkazish;

Quyidagilar psixologik xizmat faoliyatining asosiy yoʻnalishlari hisoblanadi:

- psixologik maʼrifat va tashviqot;
- psixologik-pedagogik tashxis;
- psixologik profilaktika;
- psixologik korreksiya;
- psixologik maslahat;
- kasb-hunarga yoʻnaltirish.

7. Psixologik xizmat faoliyatining asosiy yoʻnalishlari quyidagilarni nazarda tutadi:

a) psixologik maʼrifat va tashviqot yoʻnalishida:

pedagogik jamoa, sinf rahbarlari va ota-onalarning psixologik savodxonligi va kompetentligini oshirishda dastlabki psixologik-pedagogik bilim va tushunchalar, har bir oʻquvchiga individual yondashuv orqali oilaviy munosabatlar, shaxsiy gigiyena va sogʻlom turmush boʻyicha tavsiyalar berish;

oʻquvchilar, pedagog xodimlar, ota-onalar bilan yakka va jamoaviy shakldagi suhbatlar, maslahatlar, seminar-treninglar tashkil etish, turli xil yigʻilishlarda

ma'ruzalar bilan chiqishlar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari orqali psixologik bilimlarni berib borish;

b) psixologik-pedagogik tashxis yo 'nalishida:

o'quvchilarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi ishtiroki, ularning har bir holat, voqea va hodisaga munosabatini psixologik-pedagogik tashxisga oid yangi metodikalar asosida o'rganish, tahlil etish va zarur ko'rsatmalar berish;

o'quvchilarning qiziqishlari, moyilliklari, iste'dodi va iqtidoridagi asosiy yo'nalishlarni aniqlash;

ta'lim muassasasiga qabul qilingan o'quvchilarning psixologik moslashuvi va rivojlanish dinamikasini, o'quvchilarning o'qishga tayyorgarlik holatlari, o'zlashtirishi va rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash, o'rganish, tahlil qilish va tavsiyalar ishlab chiqish;

ta'lim muassasasining keyingi bosqichlariga o'tgan o'quvchilarning yangi ijtimoiy muhitga moslashuvi, o'quv faoliyati, bilim, ko'nikma va malakalarni egallash dinamikasi, shaxs sifatleri, shaxslararo munosabatlar shakllanishini kuzatib borish, tahlil etish, korreksion mashg'ulotlarni tashkil etish;

psixologik-pedagogik tashxislar, so'rovnomalar, suhbatlar orqali o'quvchilarning kasbiy qobiliyatlari, qiziqishlari va fanni o'zlashtirishga bo'lgan moyilliklarini aniqlash, ularning ongli ravishda kasb-hunar tanlashlariga ko'maklashish, ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish uchun o'quvchilar va ota-onalarga tavsiyalar berish va yo'naltirish;

ijtimoiy-psixologik muammolari mavjud hamda fanlarni o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar bilan psixologik-pedagogik tashxislar, so'rovnomalar, suhbatlar o'tkazish orqali muammo turini aniqlash, guruhlash va ular bilan korreksion ishlarni olib borish;

v) psixologik profilaktika yo 'nalishida:

o'quvchilardagi barcha salbiy holatlar va moyilliklarning oldini olish bo'yicha pedagog xodimlar va ota-onalar uchun tavsiyalar ishlab chiqish;

o'quvchilarning tengdoshlari va kattalar bilan o'zaro munosabatlarida psixologik shikast yetkazuvchi omillarni bartaraf etishda yordam ko'rsatish;

o'quvchilar o'rtasidagi huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha olib boriladigan profilaktika ishlarida ishtirok etish;

o'quvchilar xulq-atvoridagi salbiy holatlarning oldini olish, ruhiy zarba, nizo, salbiy emotsional kechinmalar holatlari yuzaga kelishining oldini olish;

salomatligi jihatidan imkoniyati cheklangan o'quvchilarni psixologik qo'llab-quvvatlash;

mahalliy davlat hokimiyati organlari, sog'liqni saqlash, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari, ota-onalar bilan uchrashuvlar, suhbatlar, seminar-treninglar, munozaralar va ochiq muloqotlar tashkil etish, taqdimotlar va videofilmlar namoyishlarini o'tkazish;

g) psixologik korreksiya yo'nalishida:

ta'lim olish va kasb-hunar tanlashda qiynalayotgan o'quvchilar, shaxsning motivatsion doirasi bilan bog'liq muammolarni hal etish borasida individual va jamoaviy korreksiya ishlarini olib borish;

yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning psixologik reabilitatsiyasini ta'minlash;

mutaxassis sifatida o'quvchining psixologik holatiga oid ma'lumotlarga munosabat bildirish, tarbiyasida salbiy holatlar mavjud bo'lgan o'quvchilar bilan korreksion ishlarni amalga oshirish;

ta'lim olish jarayonida o'quvchilarning bilish faolligi hamda qiziqishlarini rivojlantirish, ularning intellektual passivligini korreksiyalash;

individual yoki jamoaviy tartibda ota-onalar va pedagog xodimlarni jalb etgan holda o'yin, muloqot, suhbat, trening, mashq va mashg'ulotlar shaklida tadbirlar tashkil etish;

d) psixologik maslahat yo'nalishida:

o'quvchilarning individual rivojlanishidagi muammolarni hal etish bo'yicha barcha ta'lim jarayoni qatnashchilariga maslahatlar berish;

o'quvchilarga ta'lim olish, kelajagini aniqlash, tengdoshlari va yoshi kattalar bilan munosabatlaridagi muammoli holatlar yuzasidan maslahatlar berish;

o'quvchilarning psixik rivojlanish xususiyatlari, shaxs sifatida shakllanishi, shaxslararo munosabat maqomi, ularning yosh, jins, individual-tipologik xususiyatlari muammosi bo'yicha amaliy maslahatlar tashkil etish;

e) kasb-hunarga yo'naltirish yo'nalishida:

o'quvchilarga turli kasblar, ixtisosliklar, mansab lavozimlari, tanlangan kasbni, ixtisoslikni egallash mumkin bo'lgan ta'lim muassasalari hamda kasbning insonga, uning jismoniy, psixologik va shaxsiy sifatlariga, salomatligiga qo'yadigan talablari haqida ma'lumotlar berish;

o'quvchilarning bilish (o'quv predmetlariga, fanga) va kasbiy (kasblarga, mutaxassisliklarga) qiziqishlarini, kasb tanlash motivlari va kasbiy rejalarini aniqlash hamda baholash;

o'quvchilarga ularning individual xususiyatlari va mehnat bozori talablarini, ta'lim olish hamda kelgusida ishga joylashish imkoniyatlarini hisobga olgan holda kasb va ta'lim muassasasini tanlashga ko'maklashish;

o'quvchilarda mehnat ko'nikmalarini, kasblarga qiziqish, mehnatsevarlik, ishchanlik va mas'uliyatni shakllantirish hamda rivojlantirish.

Shuningdek, psixologik xizmatni rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ham muhimdir. Turli psixologik testlar, onlayn platformalar va axborot vositalari ish samaradorligini oshiradi.

Eng muhimi, maktabda ijobiy psixologik muhit yaratishdir. O'quvchilar o'zini erkin, xavfsiz va hurmat qilinadigan muhitda his qilsa, ularning rivojlanishi yanada samarali kechadi. Bunday muhitni yaratishda psixologning roli beqiyosdir.

Maktabda psixologik xizmatni to'g'ri yo'lga qo'yish kompleks yondashuvni talab qiladi. Diagnostika, profilaktika, rivojlantirish, maslahat va hamkorlik asosida tashkil etilgan psixologik xizmat o'quvchilarning sog'lom va barkamol rivojlanishini ta'minlaydi hamda ta'lim sifatini oshiradi. Psixologik xizmatlarning ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi ko'plab afzalliklarga ega ekanligi isbotlangan. Psixologlar

tomonidan taqdim etiladigan akademik yordam o'rganishdagi qiyinchiliklarni aniqlash va hal qilishga yordam beradi, bu esa o'quv samaradorligini oshirishga va talabalarning faolligini kuchaytirishga olib keladi. Bundan tashqari, psixologik xizmatlar ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirishga hissa qo'shib, o'quvchilar o'rtasida ijobiy munosabatlar, chidamlilik va ruhiy farovonlikni rag'batlantiradi.

Psixologik xizmatlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun pedagoglar va psixologlarning hamkorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ular birgalikda ishlash orqali o'quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlaydi, moslashtirilgan tadbirlarni ishlab chiqadi va har tomonlama rivojlanishni ta'minlaydigan qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratadi. Shu bilan birga, cheklangan resurslar, jamiyatdagi stereotiplar va kasbiy rivojlanish zarurati kabi omillar psixologik xizmatlarni samarali tashkil etishga to'sqinlik qilishi mumkin.

Psixologik xizmat o'z faoliyatida tibbiy, defektologik va boshqa xizmat turlari bilan hamkorlikda ishlaydi. Bola tarbiyasida ishtirok etuvchi barcha mutaxassislar o'zaro tenglik va hamkorlik asosida faoliyat olib borib, bir-birining fikrlarini to'ldiradi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimidagi psixologik xizmatning asosiy maqsadi – shaxsning har tomonlama garmonik kamoloti va to'laqonli psixologik rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishdir. Bu jarayonda maktabgacha yoshdagi bolalar, o'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalar tadqiqot va amaliy faoliyat obyekti hisoblanadi hamda ular bilan individual yoki guruhshaklda ishlash mumkin.

Ta'lim tizimidagi psixologik xizmat uch bosqichdan iborat bo'lib, yuqori bosqichda ilmiy-amaliy hujjatlar va metodikalar ishlab chiqiladi, o'rta bosqichda ular amaliyotga joriy etiladi, quyi bosqichda esa bevosita amaliy psixologlar faoliyat olib boradi. Psixologik xizmat mazmuniga psixodiagnostik tadqiqotlar o'tkazish, psixologik maslahat berish, konsiliumlar tashkil etish, psixokorreksion treninglar o'tkazish hamda o'quv-tarbiya jarayonlarini psixologik jihatdan tahlil qilish kiradi.

Ushbu faoliyatlar o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda olib boriladi.

Psixologik xizmat to'g'risidagi nizom ilk bor 1996-yilda tasdiqlangan bo'lib, keyinchalik unga o'zgartirishlar kiritilgan. Hozirgi bosqichda xizmat faoliyati ikki asosiy yo'nalishda olib boriladi: dolzarb yo'nalish – mavjud muammolarni bartaraf etish, kelajak yo'nalishi esa shaxsning individual rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan.

Psixolog pedagogik jamoaga har bir o'quvchining shaxs sifatida garmonik rivojlanishi g'oyasini olib kiradi. Shu orqali ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligi oshadi va ijodiy, faol shaxsni shakllantirishga erishiladi. Bu xizmat o'quvchilarda ijodiy yondashuvni rivojlantirish, individual xususiyatlarini namoyon etish va hayotga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi.

XULOSA

Psixolog o'z kasbiy bilimlariga tayanib, o'quvchilarning xulq-atvori, qiziqishlari va qobiliyatlarini o'rganadi, muammolar sabablarini aniqlaydi hamda ularni bartaraf etish bo'yicha psixologik-pedagogik korreksiya choralarini belgilaydi. Natijada psixologik xizmat ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonining sifatini oshiradi, sog'lom psixologik muhit yaratadi va o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Ta'lim tizimida psixologik xizmatlar o'quvchilarning ehtiyojlarini qondirish, ularning akademik muvaffaqiyatini oshirish va ijtimoiy-emotsional rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimova V.M. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
2. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Universitet, 2018.
3. Davletshin M.G'. Pedagogik psixologiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2017.
4. Shoumarov G'.B. Psixologik xizmat asoslari. – Toshkent: Sharq, 2016.
5. Mavlonov A. Pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 2021.
6. Vygotsky L.S. Mind in Society. – Cambridge: Harvard University Press, 1978.

7. Bandura A. Social Learning Theory. – New York: Prentice Hall, 1977.
8. Erikson E.H. Childhood and Society. – New York: Norton, 1968.
9. UNESCO. School Psychological Services Guidelines. – Paris, 2020.
10. Ziyonet